



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-fevral

VII-7-31-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tumanda fuqarolar yig'inlari raislari sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga ko'maklashish to'g'risida

Fuqarolar yig'inlari raislarining vakolat muddati 2025-yil may oyida tugashi munosabati bilan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasi, "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-, 10- va 12-moddalariga muvofiq hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 21-fevral kunidagi VII-7-15-7-0-K/25-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6- va 24-moddalariga muvofiq tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 21-fevraldagi "Fuqarolar yig'inlari raislari sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga ko'maklashish to'g'risida"gi VII-7-15-7-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Fuqarolar yig'inlari raislarining navbatdagi saylovini o'tkazish muddati 2025-yilning may-iyul oylarida etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tumanda bo'lib o'tadigan fuqarolar yig'inlari raislari saylovida 69 ta mahalla fuqarolar yig'ini raislari saylanishi rejalashtirilayotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi **1-ilovaga**;

fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasining tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga o'z saylov okruglarida fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashish tavsiya etilsin.

6. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (I.Nurmuradov)ga:

2025-yilning 20-mart kuniga qadar mahalla fuqarolar yig‘inlarida fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar tuzish va MFYning vakillar yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlash ishlarini tashkil etish;

saylovlarni tashkil etish hamda o‘tkazishda fuqarolar yig‘inlariga ko‘maklashish, zarurat bo‘lganda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta‘minlash choralari ko‘rsin.

7. Ko‘maklashuvchi tuman komissiyasi a‘zolari joylarda, mahalla fuqarolar yig‘inlarida fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlariga amaliy yordamlar ko‘rsatsin.

8. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov) fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlasin.

9. Tuman Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov), tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi markazi (U.Sag‘dullayev) bilan birgalikda fuqarolar yig‘inlari raislari saylovi o‘tkaziladigan binolarda va boshqa joylarda tibbiyot punktlari faoliyatini yuqori darajada tashkil etsin hamda sanitariya-gigiena talablari qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilsin.

10. Tuman hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on: Kecha va bugun” gazetasi bosh muharriri (O‘.Usmonov), viloyatdagi davlat va nodavlat telekanallarida, xususan tuman hokimligining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish hamda o‘tkazish jarayonlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Ko‘maklashuvchi tuman komissiyasiga:

fuqarolar yig‘inlari raislari saylovi yakunlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirsin hamda 2025-yil 5-avgust kuniga qadar Ko‘maklashuvchi viloyat komissiyasiga axborot berish vazifasi yuklatilsin.

12. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri M.Teshayev zimmasiga yuklatilsin.

13. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-7-31-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**2025-yilda fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Tayyorgarlik bosqichi (fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy chora-tadbirlar)				
1.	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasining yig'ilishini o'tkazish.	1. Komissiya a'zolari yig'ilishini o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish: - komissiya ish rejasini tasdiqlash; - fuqarolar yig'inlari raislari sayloviga doir hujjatlarning, shuningdek byulleten namunasi va shaklini tasdiqlash; - komissiyaning saylovni samarali o'tkazish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar bilan ta'minlanishini tashkil etish; - fuqarolar yig'inlari raislari saylovini o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etish; - fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil	2025-yil 28-fevralga qadar	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
		etish va o‘tkazish jarayonining ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tashkil etish. - komissiya a’zolarini tumanlarga biriktirish. 2. Komissiya a’zolariga vazifalar taqsimotini ishlab chiqish.		
2.	Fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasini tuzish, komissiya yig‘ilishini o‘tkazish.	1. Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarini o‘tkazish. 2. Sessiyalarda quyidagi masalalarni ko‘rib chiqish: - fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasini tuzish. 3. Fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasining yig‘ilishlarini o‘tkazish va unda quyidagi masalalarni ko‘rib chiqish: - komissiya ish rejasini tasdiqlash; - komissiya a’zolarini mahallalarga biriktirish; - fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini fuqarolar yig‘ini yig‘ilishi shaklida hamda fuqarolarning vakillari yig‘ilishi shaklida o‘tkazish masalasini ko‘rib chiqish;	2025-yil 28-fevralga qadar 2025-yil 1-martga qadar	Fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Kattaqo‘rg‘on tuman komissiyasi, xalq deputatlari tuman Kengashi, Uyushmaning tuman bo‘limi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		- saylov yoshiga to'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida o'n ikki foizi miqdorida fuqarolar yig'inlari kesimida vakillik normasini belgilash; - ishchi guruhlarini tuzish bo'yicha fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish jadvalini tasdiqlash; - ishchi guruhlardan fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni qabul qilish muddati va tartibini belgilash kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish.		
3.	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi Qonun hamda unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini mahallalar kesimida aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini tashkil etish.	1. "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi Qonun hamda unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini mahallalarda aholi o'rtasida tushuntirish maqsadida alohida reja-jadval ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Huquqshunos va soha mutaxassislari tomonidan mahallalarda aholiga O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi Qonun hamda unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini tushuntirish.	2025-yil 10-martgacha reja-jadval asosida	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, tuman adliya bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
4.	Fuqarolar yig‘ini raisi saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga doir tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to‘plamini tayyorlash.	1. Fuqarolar yig‘ini raisi saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga doir tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to‘plami loyihasini tayyorlash. 2. Tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to‘plami loyihasini manfaatdor idora va tashkilotlar bilan kelishish. 3. Kelishilgan tavsiyalar, namunaviy hujjatlarning elektron to‘plamini Fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasi tomonidan fuqarolar yig‘ini raisi saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlariga (keyingi matnlarda – Ishchi guruhlar) yetkazish.	2025-yil 15-martga qadar	Fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Kattaqo‘rg‘on tuman komissiyasi, tuman adliya bo‘limi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo‘rg‘on tuman bo‘limi
5.	O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida”gi Qonun hamda unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, aholini saylov jarayonlarida faolligini oshirishga qaratilgan teleko‘rsatuv va	1. Fuqarolar yig‘ini raisi saylovini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha media-reja ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Ssenariylar asosida tayyorlangan teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar va maqolalarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarda yoritib borish.	2025 yil 25-fevralga qadar media-reja asosida	Fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Kattaqo‘rg‘on tuman komissiyasi, Tuman hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi, “Kattaqo‘rg‘on: Kecha va bugun” gazetasining bosh maharriri

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	radioeshittirishlar, ijtimoiy roliklar hamda maqolalar tayyorlash.			
6.	Saylov xarajatlari uchun mablag' ajratish.	1. Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xarajatlar smetasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Xarajatlar smetasi doirasida belgilangan mablag'larni ajratish.	2025-yil 15-martga qadar	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasi, tuman hokimligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi, tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi
7.	Hududlar, fuqarolar yig'inlari kesimida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy ro'yxatini shakllantirish.	1. Hududlar, fuqarolar yig'inlari kesimida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy soni va ro'yxatini shakllantirish bo'yicha so'rovnomalar yuborish. 2. Saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy soni bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish.	2025-yil 15-martga qadar	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, tuman Statistika bo'limi, tuman Ichki ishlar bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi
8.	Fuqarolar yig'ini raisi saylovi	1. Fuqarolar yig'ini raisi saylovi o'tkaziladigan	2025-yil	Fuqarolar yig'inlari raislari

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	o'tkaziladigan manzil va obyektlarni aniqlashtirish va ro'yxatini shakllantirish.	manzil va obyektlarni aniqlashtirish. 2. Fuqarolar yig'inlari kesimida saylov o'tkaziladigan manzil va obyektlar ro'yxatini shakllantirish.	15-martga qadar	saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasi, tuman hokimligi
9.	Ishchi guruhlarini tuzish yuzasidan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish.	1. Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyaci tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni chaqirish to'g'risida fuqarolar yig'ini Kengashi qarorini qabul qilish. 2. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish: - ishchi guruhini tuzish va tarkibini tasdiqlash; - fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasii belgilagan vakillik normasi asosida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy sonining o'n ikki foizidan kam bo'lmagan miqdorida mavjud ko'chalar va uylarga taqsimlash; - ishchi guruh a'zolarini hududdagi hovlilar,	2025-yil 15-martga qadar	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi hamda tuman bo'limi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		uylar, ko'chalarga biriktirish hamda fuqarolar vakillarini saylash bo'yicha umumiy yig'ilishlarini o'tkazish jadvalini tasdiqlash; - saylov o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash; - fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish.		
10.	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasi hamda Ishchi guruhlar a'zolari uchun seminar-treninglar o'tkazish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasi hamda Ishchi guruhlar ishini tashkil etish o'quv dasturini tayyorlash va tasdiqlash. 2. Jadvalga muvofiq hududiy seminar-treninglar tashkil etish va o'tkazish.	2025-yil 20-martga qadar	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi viloyat, tuman komissiyasi, tuman Adliya bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi
11.	Fuqarolar yig'ini raisi saylovini o'tkazish uchun yashirin ovoz berish kabinalari, qutilar va zarur anjomlar bilan ta'minlash.	Tuman hokimligi bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi saylovini o'tkazish uchun zarur miqdorda yashirin ovoz berish kabinalari, qutilar va zarur anjomlar bilan ta'minlash.	2025-yil 20-aprelga qadar	Kattaqo'rg'on tuman hokimligi, Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi,

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
				O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi
12.	Saylov byulletenlarining fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash.	1. Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyaci hamda Ishchi guruhlar tomonidan saylov byulletenlarini ehtiyojdan kelib chiqib belgilangan tartibda chop etish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyaci tomonidan saylov byulletenlarini fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash.	Saylovdan kamida 5 kun oldin Saylov kunidan kamida 5 kun oldin	Kattaqo'rg'on tuman hokimligi, Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi
II. Asosiy bosqich (fuqarolar yig'ini raisi saylovini o'tkazish, saylov yakunlarini chiqarish, OAVda e'lon qilish)				
13.	Fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar ko'rsatish.	1. Ishchi guruhi tomonidan tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar bo'yicha takliflar va ularning hujjatlarini tayyorlash. 2. Fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga	2025-yil 31-martga qadar saylovdan	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, Ishchi guruhlar,

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yish hamda veb-saytlarga joylashtirish.	vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joy, fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlar to'g'risidagi axborotni O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman hokimligining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish.		
15.	Tumanda fuqarolar yig'inlari kesimida fuqarolar yig'ini raisi saylovini o'tkazish jadvalini tayyorlash.	1. Ishchi guruhlardan fuqarolar yig'inlarida saylov o'tkazish kuni, vaqti, joyi haqidagi ma'lumotlarni olish va umumlashtirish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyaci tomonidan fuqarolar yig'inlari kesimida saylovni o'tkazish jadvalini tasdiqlash hamda ishchi guruhlarga yetkazish.	2025-yil 15-aprelga qadar 2025-yil 20-aprelga qadar	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, Ishchi guruhlar
16.	Fuqarolar yig'ini raisi saylovini o'tkazish.	Saylovni yashirin ovoz berish orqali o'tkazish.	Saylovni o'tkazish jadvaliga muvofiq	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, Ishchi guruhlar
17.	Fuqarolar yig'ini raisi takroriy saylovini o'tkazish.	Qonunda belgilangan hollarda fuqarolar yig'ini raisi takroriy saylovini o'tkazish.	Saylov o'tkazilgan kundan keyin 1 oy	Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi,

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
			muddatda	Ishchi guruhlar
18.	Fuqarolar yig'ini raisi saylovi o'tadigan obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash hamda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish	1. Fuqarolar yig'ini raisi saylovi o'tadigan obyektlarida tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish. 2. Saylov o'tkaziladigan joylarda jamoat tartibini saqlash hamda sanitariya-gigiena talablariga rioya qilinishini tashkil qilish.	Saylovni o'tkazish jadvaliga muvofiq	Tuman Ichki ishlar bo'limi, tuman Tibbiyot birlashmasi, tuman hokimligi
19.	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashiga axborot taqdim etib borish, shuningdek, fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish.	1. Saylov jarayoni to'g'risida Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashiga axborot berib borish. 2. Saylovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish.	Har hafta yakunida Saylov yakunlari bo'yicha	Fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi
20.	Fuqarolar yig'ini raisi saylovining yakunlarini chiqarish, ularni umumlashtirish, ko'rib chiqish va keng jamoatchilikka yetkazish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyaci tomonidan saylov yakunlarini chiqarish. 2. Saylov yakunlari to'g'risida axborotni Kattaqo'rg'on tuman komissiyasiga taqdim etish. 3. Kattaqo'rg'on tuman komissiyasi tomonidan saylov yakunlarini umumlashtirish va ko'rib	2025-yil 2-iyunga qadar 2025-yil 5-iyunga qadar	Fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		chiqish.		
21.	Fuqarolar yig'ini raisi saylovi yakunlarini jamoatchilikka yetkazish.	1. Saylov yakunlari bo'yicha Fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi ishtirokida brifing tashkil etish. 2. Saylov yakunlarini ommaviy axborot vositalari hamda tuman hokimligining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilish.	2025-yil 10-iyunga qadar	Fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman komissiyasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi, Tuman hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi, “Kattaqo'rg'on: Kecha va bugun” gazetasining bosh maharriri
III. Saylovdan keyingi bosqich (fuqarolar yig'ini organlarini shakllantirish, raislarini o'qitish, ularning bilimlarini oshirish)				
22.	Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish, fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash.	1. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish. 2. Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish. 3. Yig'in faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash.	Saylov natijalari bo'yicha 1 oy davomida	O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi, tuman hokimligi
23.	Mahallalar raislari uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tashkiliy-huquqiy	1. Fuqarolar yig'ini raisini mahalla faoliyatiga oid bilim va malakasini oshirish bo'yicha o'quv-seminarlar dasturini ishlab chiqish.	2025-yil 20-iyunga qadar	O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi,

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	asoslari, raislarning vazifalari, huquq va majburiyatlarini tushuntirish hamda ularnin amaliyotda qo'llash bo'yicha o'quv-seminarlarini tashkil etish.	2. Hududlarda o'quv-seminarlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2025-yil 5-iyulga qadar	tuman hokimligi
24.	Fuqarolar yig'inlari raislarini a x b o r o t - k o m m u n i k a t s i y a texnologiyalari hamda "Raqamli mahalla" platformasi bilan ishlash bo'yicha bilimlarini oshirish.	1. Raqamli texnologiyalar vazirligining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi bilan birgalikda fuqarolar yig'inlari raislari uchun o'quv dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlar kesimida seminar-treninglarni o'tkazish jadvallarini tasdiqlash. 3. O'quv mashg'ulotlarini alohida reja hamda dastur asosida tashkil etish va o'tkazish.	2025-yil 5-iyulga qadar 2025-yil 1-avgustga qadar	Raqamli texnologiyalar vazirligining viloyat boshqarmasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasining Kattaqo'rg'on tuman bo'limi, tuman hokimligi

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-7-31-7-96-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga
ko'maklashuvchi Kattaqo'rg'on tuman komissiyasining**

TARKIBI

Komissiya raisi			
1.	Nasriddinov Jamshid To'lg'inovich	–	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi raisi
Komissiya raisining o'rinbosari			
2.	Nurmuradov Ilxom Ergashevich	–	Mahallalar uyushmasi Kattaqo'rg'on tumani bo'limi boshlig'i, mahallani qo'llab-quvvatlash bo'yicha Kattaqo'rg'on tumani Kengashi raisining o'rinbosari
Komissiya a'zolari			
3.	Xudoyberdiyev Alisher Aktamovich	–	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi
4.	Djo'rayev Ro'zimurod Bozorovich	–	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi
5.	Ubaydullayev Doston Ergash o'g'li	–	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashlari Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi o'rinbosari
6.	Shirinov Obid G'aniqulovich	–	Kattaqo'rg'on tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (kelishuv asosida)
7.	Jumayeva Sayyora Hamdamovna	–	Kattaqo'rg'on tumani hokimining o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limlari boshlig'i (kelishuv asosida)
8.	Kenjayev Azamat Hamroqulovich	–	Kattaqo'rg'on tuman kasaba uyushmai raisi

9.	Axmedov Qamariddin	–	O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasining Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi raisi
10.	Abduqahharov Lazizbek Uvaydullo o‘g‘li	–	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi boshlig‘i
11.	Otamurodov Toshmamat	–	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi rahbari
12.	Jo‘rayev Nabijon Qaxramonovich	–	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Kattaqo‘rg‘on tumani “Inson” markazlari rahbari
13.	Rahimov Elbek Erkinovich	–	Kattaqo‘rg‘on tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limlari boshlig‘i
14.	Baymurodov Bavaravshan Yusupovich	–	Kattaqo‘rg‘on tumani adliya bo‘limi boshlig‘i
15.	Ochilov Aslam Nurillayevich	–	Kattaqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
16.	Razzakov Nurbek Yarashevich	–	Kattaqo‘rg‘on tumani soliq inspeksiyasi boshlig‘i
17.	Xudoyqulov Voxidjon Yorqulovich	–	Kattaqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
18.	Usmonov O‘tkir Raxmonovich	–	“Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi bosh muharriri
19.	Tursunqulov Oybek Sagdullayevich	–	O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi boshlig‘i
20.	Toshonov Yazdon Xomitovich	–	O‘zLiDeP Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari-apparat rahbari
21.	Kulmurodov Shoxruz Shavkatjonovich	–	Mahallalar uyushmasi Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi yetakchi mutaxassisi, Komissiyaning mas’ul kotibi